



“MADANIYAT” VA “MILLIY MADANIYAT”
TUSHUNCHALARI HAQIDA

Абдулхай Турсинович Каримов

Farg'ona davlat universiteti Vokal va cholg'u ijrochiligi kafedrasii
o'qituvchisi

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7961842>

ARTICLE INFO

Received: 15th May 2023

Accepted: 22th May 2023

Online: 23th May 2023

KEY WORDS

Taraqqiyot, millat, moddiy va
ma'naviy boylik, ziddiyat,
falsafa, til.

ABSTRACT

Mazkur maqolada madaniyat va uning tarifi, milliy madaniyatimizning ijtimoiy hayotimizdagi o'rni xamda o'zga millatlar madaniyati bilan o'zaro aloqalari, rivojlanishi haqida fikr yuritiladi.

Bugungi kunda Zardusht tomonidan bir butun tizim holiga keltirilgan, muqaddas kitoblardan biri bo'lgan “Avesto”da zikr qilingan hamda Moniy va Mazdaklar tomonidan davom ettirilgan, Forobiy, Ibn Sino va Beruniy asarlarida o'zining yuksak cho'qqilaridan biriga ko'tarilgan, Alisher Navoiy, Boborahim Mashrab, Ahmad Donishlar orqali Behbudiy va Fitratlargacha yetib kelgan milliy madaniyatni rivojlantirish silsilasini o'rganish zarur. Jumladan, Mahmudxo'ja Behbudiy o'zining “Yoshlarga murojaat”, “Muhtaram yoshlarga murojaat” asarlarida ta'kidlaganidek, yoshlarni zamonaviy bilim olishga chorlash, dunyoviy va diniy bilimlarni uyg'unlashtirish orqali madaniyatga erishish mumkinligi, bu esa o'z navbatida milliy madaniyatni rivojlantirish silsilasini yuzaga keltiradi. Shuningdek, milliy madaniyat, maktab – taraqqiyotining boshlang'ichi, madaniyat va saodatning durdonasidir¹, - deb yozadi. Bu – millat oldida va umuman, jahon falsafasi oldidagi muqaddas burchdir.

Ma'lumki, ijtimoiy taraqqiyotda insoniyat madaniyati istiqboliga turlicha yondashuvlar mavjud bo'lgan. Xususan, nemis olimi O.Shpengler va ingliz tarixchisi A.Toynbilar tomonidan ilgari surilgan va mohiyat e'tibori bilan o'zaro o'xshash bo'lgan qarashlar shular jumlasidandir. O.Shpengler fikricha, insoniyat madaniyati bu quruq abstraksiya xolos. Nisbatan yopiq va bir-biridan mutlaqo mustaqil bo'lgan “madaniy organizm”largina real mavjuddir. U ana shunday “madaniy organizm”lardan 8 tasini ajratib ko'rsatib, mayya, misr, hind, vavilon, xitoy, grek-rim, vizantiya – arab hamda G'arbiy Yevropa madaniyatlarini bir-biri bilan mutlaqo solishtirib bo'lmaydi, degan fikrni ilgari surgan edi. Olim bu madaniyatlarga o'zaro ta'sirlashuv va boyish jarayoni mutlaqo yot, deb hisoblab, ularning har biri tirik organizm kabi tug'ilish, voyaga yetish, balog'atga erishish va o'z hayotiy imkoniyatlarini sarflab bo'lib, halokatga yuz tutishdek, taxminan ming yillik oraligni o'z ichiga oladigan bosqichlarni bosib o'tadi va yangi madaniyatga joy bo'shatib beradi, deb ta'kidlagan edi. O.Shpengler ana shunday madaniyatlarning oxirgisi bo'lgan G'arbiy Yevropa madaniyati

1 Маҳмудхўжа Беҳбудий. Танланган асарлар. – Тошкент: Маънавият, 2021. 1-жилд. – Б. 421-422; 439.



ham o'z taraqqiyotining so'nggi bosqichiga qadam qo'ydi, chunki unda badiiy ijodkorlik, yaratuvchilik salohiyati so'nmoqda, ma'naviy inqiroz ildiz otmoqda, deb hisoblagan edi². Ayni paytda, hech qaysi xalq va millat, mintaqa madaniyati o'zaro ayro holda rivojlanmagan. Sivilizatsiyalar o'rtasidagi o'zaro aloqalar natijasida ellinistik madaniyat vujudga kela boshladi. Madaniyatlar to'qnashuvi jamiyatning formatsion rivojlanishiga ta'sir etdi va madaniyat turli davrlarda turlicha ko'rinishga ega bo'ldi.

Madaniyat – bu insonlarning ijodiy faoliyati tufayli yaratilgan moddiy va ma'naviy boyliklar majmuini ifodalashdan tashqari, o'zida jamiyatning taraqqiyot darajasini ham aks ettiradi, ya'ni jamiyatdagi bilim, mezon va qadriyatlarining yig'indisi madaniyatda gavdalanadi.

“Madaniyat” tushunchasi kompleks va ko'p ma'noli tushuncha sifatida zamonaviy gumanitar fanlar, xususan, falsafa va madaniyatshunoslikning eng bahstlab mavzularidan biri hisoblanadi. U o'zining murakkab va ko'p aspektliligi bilan birga differensial hamda o'ziga xos tavsiflari sababli turli terminlar orqali izohlanadi, turlicha tasniflanadi va turli-tuman tipologiyalarni namoyon etadi. Mazkur tasnif va tipologiyalar qanchalik ko'p bo'lmasin, ularning hech biri “madaniyat” tushunchasini to'liq ochib bera olmasa-da, bir-birini to'ldirib keladi. “Madaniyat” so'zi birinchi marta Edvard Teylor tomonidan qo'llanilgan. Uning fikricha, madaniyat – jamiyatning turli a'zolari tomonidan qabul qilingan yashash tarzi, an'ana, urf-odatlardan iborat³.

Madaniyat tavsifi va rivojini ko'rsatish uchun “madaniyat” va “sivilizatsiya” tushunchalarini farqlash lozim. “Madaniyat” termini klassik tushunchada “sivilizatsiya” so'ziga sinonim sifatida qo'llaniladi (masalan, V.O.Klyuchevskiy, Z.Freyd, N.Ya.Danilevskiy va b.); ba'zi hollarda mazkur tushunchalar qat'iy qarama-qarshi qo'yiladi (masalan, Sh.Fure, I.Kant, O.Shpengler, A.Berdyayev va b.). Hozirgi davrda “sivilizatsiya” termini umuminsoniy xarakter kasb etib, jamiyat rivojining barcha bosqichlarida ishtirok etmasdan, madaniy qadriyatlarining texnogen jarayonlari bilan bog'liqlikda namoyon bo'ladi. Sivilizatsiya ko'pgina gumanitar fanlarda fanning tez sur'atlarda rivojlanishi, ishlab chiqarishning o'sishi natijasida odamlarning hayot tarzining o'zgarishi, ommaviy tarzda ehtiyojlarini qondirishi uchun qulaylikka intilishi, ya'ni tashqi tomondan kamolotga erishishi tarzida talqin etiladi.

Falsafaga oid ensiklopedik lug'atda ham madaniyat va sivilizatsiyani bir-biridan ajratib farqlash kerakligi aytiladi, chunki “Madaniyat – bu, xalq yoki individning erkini aniqlash natijasi, sivilizatsiya esa, texnikaviy yutuqlar va ular bilan bog'liq qulayliklar” demakdir.

Bundan yarim asr muqaddam A.Kryobera va K.Klakxonning “Kultura, kriticheskiy obzor opredeleniy” nomli kitobida madaniyat tushunchasiga 400 dan ortiq ta'rif berilgan va ularning belgilariga ko'ra, 10 guruhga ajratilgan. Birinchi guruhda madaniyatning tasviriy tavsifi keltirilgan bo'lsa, ikkinchi guruhda uning an'analar, jamiyatning ijtimoiy merosiga aloqador jihatlari, uchinchi guruhda millat, elat hayot tarzini tashkil etuvchi madaniy qoidalar sharhlagan. Mazkur guruhlarda madaniyat inson faoliyatining mahsuli sifatida ta'riflanadi.

“Madaniyat” tushunchasiga ijtimoiy (jamiyat hayotida aniq funksiyani bajarishi), antropologik (insoniyat faoliyatini ifodalashi), falsafiy (jamiyat va shaxs manfaatlari kesishuvi

² Қаранг: Шпенглер О. Закат Европы: очерки морфологии и мировой истории. –Москва, 1993.

³ Тайлор Э.Б. Первобытная культура – Москва: Издательства политической культуры 1989. – С. 50.



sifatida ob'ektiv borliqqa madaniyat munosabatlarini namoyon etishi) nuqtai nazardan yondashish muhim ahamiyatga ega.

“Madaniyat” tushunchasi falsafada keng qo'llanilishiga qaramasdan uning mazmun mohiyatiga aniqlik kiritish zarurati mavjud, chunki tarjimashunoslikda va umuman lingvistikada “madaniyat” odatda intuitiv termin sifatida izohsiz tushuniladi.

2019 yilda nashr etilgan Jahon falsafasi qomusida “madaniyat” tushunchasi quyidagicha ta'riflangan: “Madaniyat (arab. madinalik, shaharlik, ta'lim-tarbiya ko'rgan) tabiat va o'zaro munosabatlarda aks etadigan inson faoliyatining o'ziga xos usuli”.

Umuman olganda, yashash darjasining yangi qirralarini olimlar yetti omilga birlashtirdilar: homo sapiens (aqli odam), agrar, urbanistik, industrial, madaniy, intim munosabatlar, ilmiy-texnik revolyutsiyaning namoyon bo'lishi kabilar. Faylasuflarning fikricha, u yoki bu omilning ta'siri insoniyatning ma'lum bir davriga tegishli bo'lib, bunday o'zgarishlarni ertami kechmi, barcha jamiyat o'z boshidan o'tkazadi, biroq ayni paytda mazkur jarayonni barcha xalqlar to'liq qamrab ola olmaydi, ularga faqat o'sha madaniyat elementlarigina yetib borishi mumkin. Albatta, madaniyat umuminsoniy hodisa hisoblanadi, u faqat bir xalqqa tegishli bo'lmaydi. Har bir etnos, xalq, millat o'z milliy madaniyatining asosiy qismini o'zi yaratgan bo'lsa-da, unda jahon xalqlari yaratgan umuminsoniy madaniyatning ulushi va ta'siri bo'ladi. U barchaga barobar xizmat qiladi. Masalan, fan, texnika, san'at, adabiyot, tarixiy-me'moriy obidalarga tegishli yutuqlar barchaga tegishlidir.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, inson tabiat ijodkori sifatida madaniyatning ikkinchi qirrasini kashf qildi. Madaniyat umuminsoniyat hodisasidir (unda inson birlamchi asosga ega), shu sababli milliy madaniyat elementlari, xususan qardosh madaniyat elementlari bir-biriga mos tushadi.

Tabiiyki, madaniyat insoniyatga nima beradi, degan savol tug'iladi. Bunga quyidagicha javob berilsa, nazarimizda, o'rinli bo'ladi: madaniyat atrof-muhitga hamda o'zga tilga nisbatan qiziqish uyg'otadi; madaniyat inson dunyoqarashini kengaytiradi; madaniyat bitmas-tuganmas bilim beradi; madaniyat turli nuqtai nazarlarning, qarashlarning nisbiy ekanligini tushunib yetishga undaydi; madaniyatni o'rganish madaniyatlararo munosabatlarning rivojlanishiga keng yo'l ochadi; madaniyat til o'rganish, fikrlash, xulosalar qilish, nazariyalar yaratish, inson sivilizatsiyasini o'rganishga asos bo'ladi; har qanday madaniy va moddiy boylikka xos tushunchalar tilda va nutqda ifodalanadi.

Madaniyatlar o'rtasidagi ziddiyatlar to'g'risida bir-birining madaniyatini yaxshi bilmasligi oqibatida tushunmovchiliklar kelib chiqqanligi to'g'risida ko'plab misollar mavjud. Masalan, Ispaniya firmasi Meksika bilan shampan vinosi uchun katta miqdorda tiqin, probka sotish to'g'risida bitim imzolaydi, biroq import mahsulotini ehtiyotsizlik oqibatida meksikaliklar uchun motam ramzi bo'lgan to'q qizil rangga bo'yab qo'yadi, natijada shartnoma buziladi.

Amerikalik antropolog Lora Boxennen chet el adabiyotini o'qiyotganda, kitobxon o'zga madaniyatni o'z madaniyati nuqtai nazaridan qabul qilinishini Shekspirning “Gamlet” asari misolida tushuntiradi. U ushbu asarni G'arbiy afrikaliklarga o'qib berganda, ular bu qahramonlarni o'z tushunchalaridan kelib chiqib muhokama qiladilar: Klavdiy – yaxshi insonlar singari ish tutdi, akasining beva xotiniga uylandi. Gamlet otasining ruhini, xuddi tirik odamday gapirishini, yurishini ularning mentaliteti qabul qila olmaydi. Poloniyning xatti-



harakatlarini oqlamadilar, nega qizini yo'l boshchining sevgilisi bo'lishiga to'sqinlik qiladi, axir bu faxr-ku, yana buning ustiga ko'p sovg'a-salomga ega bo'lardi" kabi fikrlarni bildiradilar.

Bu singari ko'plab misollar butun dunyo tili va madaniyati o'z madaniyati va boshqa davlat tili hamda madaniyatni bilmaydigan *begona madaniyatga* bo'lib, o'rganishga asos bo'ladi.

Dunyoda minglab millat va elatlar o'zlariga xos milliy xususiyat va madaniyatga ega. Milliy madaniyatlarda har bir millat yoki elat yashab turgan hududning tabiiy joylashuvi, geografiyasi va iqlimi turmush kechirishida mavjud mashg'ulotlari doirasidagi qiyinchiliklarni bartaraf etish choralarini izlash jarayonida vujudga keladi va keyinchalik milliy urf-odat va an'anaga aylanib boradi. Mazkur etnik xususiyat bora-bora millat xarakteriga ham o'z ta'sirini o'tkazib boradi. Bizning milliy an'analarimiz va betakror urf-odatlarimiz uzoq yillardan beri sayqallanib o'zining yuksak pog'onasiga ko'tarilib bormoqdaki, bu jarayonlar davlatimiz siyosatining ajralmas bir qismiga aylanib bugungi kundagi islohotlar orqali namoyon bo'layotganligining guvohi bo'lamiz.

References:

1. Маҳмудхўжа Беҳбудий. Танланган асарлар. – Тошкент: Маънавият, 2021. 1-жилд. – Б. 421-422; 439.
2. Шпенглер О. Закат Европы: очерки морфологии и мировой истории. – Москва, 1993.
3. Тайлор Э.Б. Первобытная культура – Москва: Издательства политической культуры 1989. – С. 50.
4. Исаков Улуғбек Тўхтасинович //ЎЗБЕК МУСИҚА МАДАНИЯТИ РИВОЖЛАНИШ ЖАРАЁНЛАРИНИНГ НАЗАРИЙ-МЕТОДОЛОГИК АСОСЛАРИ, МАНБАЛАРИ ҲАМДА УНИ ЎРГАНИШНИНГ АҲАМИЯТИ// SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL. № 2, 2022. 625-636
5. Исақов Улуғбек Тўхтасинович //ЎЗБЕК МУСИҚА МАДАНИЯТИ РИВОЖИНИНГ ИЖТИМОЙ ФАЛСАФИЙ ОМИЛЛАРИГА ДОИР// SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL. VOLUME 1. ISSUE 7. 101-107 pages.
6. Imyamin Kirgizov, Kirgizov Iqboljon Imyaminovich, Ahmadjon Nurmuhammedjanov, Sobirov Bahodirjon Sotvoldievich, Najmetdinova Mavludakhon Mamasodikovna, Ataboeva Shoxidakhon Juraevna // "The Pleasure of Singing, Listening and Understanding Navoi" // Annals of the Romanian Society for Cell Biology., ISSN:1583-6258, Vol. 25, Issue 3, 2021, Pages. 2410-2413.
7. Sultonali Mannopov, Mavluda Najmetdinova, Shokhida Ataboeva, Iroda Nazarova, Jamoldin Mo'ydinov //Analysis of Research on Aesthetic Features of Uzbek Folk Music// Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry (TOJQI). Volume 12, Issue 10, October 2021. 3528-3533 pages.
8. Ulugbek Rahmonov Karimovich, Najmetdinova Mavluda Mamasodikovna, Ergashev Alijon Abdullaevich //The Role and Importance of Music Clubs in The Leisure of Young People// Journal of Pedagogical Inventions and Practices. 22-11-2021. 47-49 pages.
9. Imyamin Kirgizov, Iqbol Kirgizov, Mavluda Najmetdinova, Shohida Atabayeva. (2022). THE GENESIS OF THE DEVELOPMENT OF MUSIC CULTURE. *Archive of Conferences*, 57-60.



10. SultonaliMannopov, AbdulhayKarimov, AbdusalomSoliev, UlugbekIsakov, TokhirShokirov, RustamOrziboev //Development of Uzbek National Singing Art during Independence// Annals of R.S.C.B., ISSN:1583-6258, Vol. 25, Issue 4, 2021, Pages. 6845-6853.
11. Ataboyeva Shoxida Jurayevna, Ergashev Alijon Abdullayevich //THE PLACE OF NATIONAL INSTRUMENTS IN THE ART OF MUSICIANS// SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL. VOLUME 2. ISSUE 1. JANUARY 2023. 478-483 pages.
12. А.Султонов, А.Абдисатторов //МАРКАЗИЙ ОСИЁДА МУСИҚА ИЛМИ РИВОЖЛАНИШИДА БАХШИЧИЛИК САНЪАТИНИНГ ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ// Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. VOLUME 2 | ISSUE 10/2. October 2022. 452-456 pages.
13. A.Sultonov //MUSIQIY IDROKKA TA'SIR ETUVCHI TRANSFORMATSION TENDENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING SAMARADORLIGI// Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. VOLUME 2 | ISSUE 10/2. October 2022. 314-323 pages.
14. Djalalova, N. //FUNDAMENTALS OF MUSICAL AND PEDAGOGICAL SKILLS// Science and Innovation, 1(8), 2022. 478-481 pages.
15. Djalalova, N.X. (2022). //FORTEPIANODA IJRO ETISH YOSHLARNI MUSIQIY TAFAKKURINI FAOLLASHTIRUVCHI OMIL SIFATIDA// Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. VOLUME 2 | ISSUE 10/2. October 2022. 394-399 pages.
16. Шокиров Тохиржон Нурмаматович //МИЛЛИЙ МУСИҚА МАДАНИЯТИ ВА УНИНГ РИВОЖЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ (фольклор, дostonчилик, мақом мисолида)// SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL. № 3, 2022. 31-38 pages.
17. Шокиров Тохиржон Нурмаматович //АБУ НАСР ФОРОБИЙНИНГ МУСИҚА ИЛМИГА ҚЎШГАН ҲИССАСИ// Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. VOLUME 2 | ISSUE 10/2. October 2022. 353-359 pages.
18. Takhirjon N. Shakirov //SUCCESSION IS THE MAIN PRINCIPLE OF DEVELOPMENT OF NATIONAL MUSIC CULTURE// Oriental Journal of Social Sciences. 08.11.22. Pages: 1-10.
19. Shokirov Tokhirjon Nurmamatovich //THEORETICAL OF NATIONAL MUSIC CULTURE FUNDAMENTALS// European Scholar Journal (ESJ). Vol. 2 №.9,SEPTEMBER 2021. 37-39 pages.
20. Шокиров Тохиржон Нурмаматович //ВОРИСИЙЛИК ВА МИЛЛИЙ МАДАНИЯТ// Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. VOLUME 2 | ISSUE 10/2. October 2022. 457-464 pages.
21. Namozova Diloromkhon,Tohir Shokirov, Akmal Sulonov, Bakhodirjon Sobirov //Competent Approach to Music Education// Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry (TOJQI) Volume 12, Issue 10, October 2021. 3490-3494 pages.
22. Barchinoy Qurbonova, Mamaziyayev Xurshid, Shokirov Toxirjon //TASVIRIY SAN'ATDA O'QITISH USLIBIGA TIZIMLI YONDASHUVNING ROLI VA AHAMIYATI// Humanity and Science Congress Hosted From Ipoh, Malaysia <https://conferencepublication.com> May 2nd 2022. 105-107 pages.
23. Орзибоев Рустамжон //МАРКАЗИЙ ОСИЁ МУТАФАККИРЛАРИНИНГ МУСИҚА МАДАНИЯТИГА ДОИР АСАРЛАРИ ТАҲЛИЛИ// Oriental Renaissance: Innovative,



educational, natural and social sciences. VOLUME 2 | ISSUE 10/2. October 2022. 452-456 pages.

24. Нажметдинова Мавлуда Мамасодиқовна //ОММАВИЙ-МАДАНИЙ ТАДБИРЛАРНИ ТАШКИЛ ҚИЛИШНИНГ ИННОВАЦИОН ОМИЛЛАРИ// Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. VOLUME 2 | ISSUE 10/2. October 2022. 584-588 pages.

25. Mavluda NAJMETDINOVA //Общественно-культурные мероприятия теоретические основы// Жамият ва инновациялар – Общество и инновации – Society and innovations. Issue 02(2022). 473-479 стр.

26. Мавлуда Нажметдинова //Оммавий-маданий тадбирларнинг назарий асослари// Общество и инновации. 02(2022). 473-479 стр.

27. Ulugbek Rahmonov, Alijon Ergashev, Mavludaxon Nazhmetdinova, & Shohista Usmonova. (2021). IN SHAPING THE SOCIO-SPIRITUAL THINKING OF YOUNG PEOPLE IN THE MUSICAL ART OF THE GREAT SCHOLARS OF THE EASTERN RENAISSANCE POSITION HELD. *Archive of Conferences*, 54-57.

28. М.Нажметдинова, Жўрабоева Хакимахон //МАҚОМ САНЪАТИ ВА УНИНГ ЁШЛАР МАЪНАВИЙ ДУНЁҚАРАШИГА ТАЪСИРИ// Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 3(2), Feb., 2023. 813-817 pages.

29. Najmetdinova Mavluda Mamasodiqovna //SPECIFIC FEATURES OF PUBLIC-CULTURAL EVENTS// International Scientific Journal "Science and Innovation". Series 1. Volume 1. Issue 1. 892-902 pages.

30. Mavludaxon Najmetdinova //YOSHLARNING ESTETIK TARBIYASINI SHAKLLANTIRISHDA – AJDODLAR MEROSINING TUTGAN O'RNI// SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL. VOLUME 1. ISSUE 6. 990-993 pages.

31. Нажметдинова Мавлуда Мамасодиқовна //ОММАВИЙ-МАДАНИЙ ТАДБИРЛАРНИНГ ЁШЛАР МАЪНАВИЙ ДУНЁҚАРАШИНИ ЮКСАЛТИРИШДАГИ ЎРНИ// SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL. VOLUME 1. ISSUE 6. 282-287 pages.

32. Sharipova Odinakhon Shavkatjon kizi, Najmetdinova Maluda Mamasodikovna //ЎЗБЕК МУСИҚА САНЪАТИ ВА МАДАНИЯТИ МАСАЛАЛАРИГА ДОИР// "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal. Volume 3. Issue 1 / March 2022. 585-588 pages.

33. Нажметдинова Мавлуда Мамасодиқовна //ОММАВИЙ-МАДАНИЙ ТАДБИРЛАРНИНГ ЁШЛАР МАЪНАВИЙ ДУНЁҚАРАШИНИ ЮКСАЛТИРИШДАГИ ЎРНИ// SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL. VOLUME 1. ISSUE 6. 282-287 pages.

34. Imyamin Kirgizov, Iqbol Kirgizov, Mavluda Najmetdinova, & Shohida Atabayeva. (2022). THE GENESIS OF THE DEVELOPMENT OF MUSIC CULTURE. *Archive of Conferences*, 57-60.